LOYIHALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TARIX YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDAN MUSTAQIL TA’LIM OLISH FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedova Nodima Izzatullo qizi
O‘zMPU mustaqil tadqiqotchisi

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.24054651***

Annotatsiya: *Mazkur maqolada loyihalashtirish texnologiyasi asosida tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta’lim olish faoliyatlarini takomillashtirishning pedagogik va metodik xususiyatlari yoritilgan. Tarix yo‘nalishi talabalarining kasbiy yo‘nalishi, mavjud bilim va ko‘nikmalari, ingliz tilini o‘zlashtirishdagi lingvodidaktik ehtiyojlari hamda mustaqil ta’lim faoliyatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanish orqali talabalarning kasbiy-kommunikativ, axborot bilan ishlash, tahliliy va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *loyihalashtirish texnologiyasi, tarix yo‘nalishi talabalari, mustaqil ta’lim, ingliz tili, kasbiy-kommunikativ kompetensiya, lingvodidaktik xususiyatlar, loyiha faoliyati, refleksiya, tanqidiy fikrlash.*

Abstract*: This article examines the pedagogical and methodological aspects of improving history students’ independent learning activities in English through the project-based learning technology. It analyzes the professional orientation of history students, their existing knowledge and skills, their linguodidactic needs in learning English, and the specific characteristics of their independent learning activities. Furthermore, it substantiates the potential of project-based learning technology to develop students’ professional and communicative competence, information-handling skills, analytical abilities, and independent learning skills.*

Keywords: *project-based learning technology, history students, independent learning, English language, professional communicative competence, linguodidactic characteristics, project activities, reflection, critical thinking.*

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish mazmunini takomillashtirish, talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish hamda ularni kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan kommunikativ muhitga tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘qitishda talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilini o‘rganish jarayoni boshqa ta’lim yo‘nalishlardan muayyan xususiyatlari bilan farqlanadi. Chunki ushbu yo‘nalish talabalari uchun ingliz tili nafaqat umumiy kommunikativ vosita, balki tarixiy manbalarni o‘rganish, xorijiy ilmiy adabiyotlardan foydalanish, tarixiy voqea-hodisalarni qiyosiy tahlil qilish, xalqaro ilmiy axborot almashinuvida ishtirok etish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini o‘qitish jarayonini tarix fanining mazmuni va talabalarning kasbiy ehtiyojlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda loyihalashtirish texnologiyasi muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Ushbu texnologiya ta’lim oluvchilarning muayyan muammoni mustaqil aniqlashi, maqsad belgilashi, zarur axborotlarni izlab topishi, ularni tahlil qilishi, amaliy faoliyatni rejalashtirishi va yakuniy natijani taqdim etishiga asoslanadi. Natijada ingliz tilini o‘rganish jarayoni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan mustaqil izlanish va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoniga aylanadi.

Tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta’lim olish faoliyatlarini takomillashtirish, avvalo, ularning kasbiy yo‘nalishi va til o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi. Mazkur yo‘nalish talabalarining lingvodidaktik xususiyatlarini bir necha jihatlar asosida tavsiflash mumkin.

Kasbiy mazmunning ustuvorligi. Tarix yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj, asosan, tarixiy voqealar, shaxslar, davrlar, madaniy meros va ijtimoiy jarayonlar haqidagi axborotlarni xorijiy tilda tushunish hamda ifodalash bilan bog‘liq. Shu sababli ularning mustaqil ta’lim topshiriqlari umumiy mavzular bilan cheklanib qolmasdan, tarixiy mazmundagi matnlar, ilmiy maqolalar va manbalar bilan ishlashga yo‘naltirilishi lozim.

Tarixiy axborotni tahlil qilish va interpretatsiyalashga moyillik. Tarix fanining o‘ziga xosligi talabalarni turli manbalardagi ma’lumotlarni taqqoslash, tarixiy hodisalarning sabab va oqibatlarini aniqlash, muallif pozitsiyasini baholash hamda xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi. Ushbu xususiyat ingliz tilini o‘rganish jarayonida ham samarali qo‘llanilishi mumkin. Masalan, talabalar ingliz tilidagi tarixiy matnlarni o‘qish orqali asosiy g‘oyani aniqlash, fakt va muallif munosabatini farqlash, voqealarni xronologik tartibda ifodalash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Terminologik va leksik-semantik xususiyatlar. Tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy kommunikativ faoliyati tarixiy terminlar, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar, davr nomlari, tarixiy jarayonlarni ifodalovchi leksik birliklarni o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, civilization, empire, historical source, archaeological discovery, cultural heritage, ancient society, revolution kabi birliklarni kontekst asosida o‘rganish ularning kasbiy nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda so‘zlarni alohida yodlashdan ko‘ra, ularni muayyan tarixiy matn va kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash samaraliroq hisoblanadi.

Axborot izlash va manbalar bilan ishlash xususiyati. Tarixchi mutaxassisning kasbiy faoliyati turli tarixiy manbalar, ilmiy nashrlar, elektron kutubxonalar va raqamli arxivlardan foydalanishni talab etadi. Shu bois ingliz tilidan mustaqil ta’lim olish jarayonida talabalarga xorijiy elektron resurslardan maqsadli foydalanish, zarur ma’lumotlarni saralash, ishonchliligini baholash, qayta ishlash va umumlashtirishga doir topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Demak, tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilini o‘rganishdagi lingvodidaktik xususiyatlari kasbiy mazmun, tarixiy axborotni tahlil qilish, terminologik bilimlar mustaqil axborot izlash faoliyatining o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Loyihalashtirish texnologiyasi mustaqil ta’lim faoliyatini takomillashtirishda bir qancha imkoniyatlarga ega. Loyihalashtirish texnologiyasi talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini maqsadli, izchil va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalardan biridir. J. Deweyning tajribaga asoslangan ta’lim g‘oyalari, W.H. Kilpatrickning loyiha metodiga oid qarashlari hamda zamonaviy loyiha asosida o‘qitish nazariyalari mazkur texnologiyaning metodologik asoslarini tashkil etadi.

M. Thomas, J. W. Thomas tomonidan loyiha asosida o‘qitish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim oluvchilarning muammoli vaziyatlar bilan ishlashi, izlanishi va yakuniy mahsulot yaratishi ta’lim jarayonining muhim tarkibiy jihatlari sifatida izohlangan. Bunday faoliyat talabaning bilimlarni tayyor holda qabul qilishi emas, balki ularni mustaqil ravishda izlab topishi, qayta ishlashi va amaliyotda qo‘llashini ta’minlaydi.

Tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta’lim olish faoliyatini loyihalashtirish texnologiyasi asosida tashkil etishda quyidagi pedagogik imkoniyatlar yuzaga keladi:

- talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan kasbiy va ichki motivatsiyasini kuchaytiradi;
- mustaqil ta’lim maqsadlarini belgilash va faoliyatni rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- ingliz tilidagi tarixiy va ilmiy axborotlarni izlash, saralash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- tarixiy mazmundagi matnlar asosida o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarining integratsiyalashuvini ta’minlaydi;
- talabalarning tanqidiy, ijodiy va analitik fikrlash faoliyatini faollashtiradi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholash va refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Loyihalashtirish texnologiyasining muhim jihati shundaki, unda til o‘rganish maqsadi muayyan amaliy mahsulot yaratish bilan bog‘lanadi. Masalan, “Historical Places”, “Ancient Olympic Games”, “Public Transport Through the Ages”, “Historical Globalization”, “Modern vs Ancient Jobs” kabi mavzular orqali talabalar tarixiy ma’lumotlarni ingliz tilida izlaydi, ularni tahlil qiladi, matnlar tayyorlaydi, taqdimotlar yaratadi va o‘z xulosalarini bayon etadi.

Bunday faoliyatda ingliz tili alohida o‘rganiladigan fan sifatida emas, balki tarixiy mazmundagi muammolarni hal etish va kasbiy axborot almashish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Natijada til o‘rganishning nazariy va amaliy jihatlari o‘zaro integratsiyalashadi.

Tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta’lim olish faoliyatlarini takomillashtirishda loyiha faoliyatini muayyan bosqichlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayon quyidagi besh bosqichni qamrab oladi:

1. Motivatsion bosqich. Ushbu bosqichda talabalarda ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘rganishga nisbatan qiziqish va ehtiyoj shakllantiriladi. Tarixiy muammoli vaziyatlar, qiziqarli video materiallar, xorijiy tarixiy manbalar va kasbiy mavzulardagi muhokamalar orqali loyiha faoliyatiga motivatsiya yuzaga keltiriladi. Masalan, “Why is it important to study historical sources in English?” mavzusida muammoli savol qo‘yish talabalarni izlanishga undaydi.

2. Rejalashtirish bosqichi. Talabalar loyiha mavzusini aniqlaydi, maqsad va vazifalarni belgilaydi, faoliyat yo‘nalishlarini rejalashtiradi hamda zarur axborot manbalarini tanlaydi. Bu bosqichda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi vazifasini bajaradi. Talabalar mustaqil ta’lim uchun vaqtni taqsimlash, vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlash va natijani oldindan belgilash ko‘nikmalarini egallaydi.

3. Loyihani amalga oshirish bosqichi. Mazkur bosqichda talabalar ingliz tilidagi tarixiy va ilmiy manbalarni izlaydi, matnlarni o‘qiydi, notanish leksik birliklarni o‘zlashtiradi, ma’lumotlarni saralaydi va qayta ishlaydi. Shuningdek, loyiha mazmuniga muvofiq yozma matn, tarixiy xarita, infografika, elektron taqdimot yoki video material tayyorlaydi. Ushbu bosqich mustaqil ta’lim faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi.

4. Taqdimot bosqichi. Talabalar loyiha natijalarini ingliz tilida taqdim etadi, tarixiy ma’lumotlarni izohlaydi, o‘z qarashlarini asoslaydi va savollarga javob beradi. Bu jarayonda monologik va dialogik nutq, kasbiy terminologiyadan foydalanish, fikrni mantiqiy ifodalash hamda auditoriya bilan muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

5. Refleksiv-baholash bosqichi. Yakuniy bosqichda talabalar o‘z faoliyatining natijalarini tahlil qiladi, belgilangan maqsadlarga erishish darajasini aniqlaydi, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni baholaydi va keyingi faoliyat uchun xulosalar chiqaradi. O‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, o‘qituvchi fikri va portfolio materiallaridan foydalanish mazkur bosqichning samaradorligini oshiradi.

Ushbu bosqichlarning izchil tashkil etilishi mustaqil ta’limni tasodifiy topshiriqlar yig‘indisidan maqsadli, boshqariladigan va natijasi baholanadigan yaxlit pedagogik jarayonga aylantiradi.

Loyihalashtirish texnologiyasining samaradorligi, eng avvalo, talabalarga beriladigan topshiriqlarning mazmuni, murakkablik darajasi va kasbiy yo‘nalganligiga bog‘liq. Shu jihatdan tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini to‘rtta asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – kirish va yo‘naltiruvchi topshiriqlar. Bunda talabalar loyiha mavzusiga oid asosiy tushunchalar, tarixiy atamalar va leksik birliklar bilan tanishadi, matn mazmunini anglaydi hamda zarur til materiallarini o‘zlashtiradi.

Ikkinchi guruh – reproduktiv-operatsion topshiriqlar. Ushbu topshiriqlar orqali talabalar tarixiy matnlardagi ma’lumotlarni topish, savollarga javob berish, tarixiy voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtirish, terminlarga izoh berish va matnni qisqacha bayon qilish kabi amallarni bajaradi.

Uchinchi guruh – produktiv-loyihaviy topshiriqlar. Bu guruhdagi topshiriqlar talabalarning mustaqil izlanishi va ijodiy faoliyatini talab qiladi. Masalan, muayyan tarixiy davrga oid elektron taqdimot yaratish, ikki tarixiy manbani qiyoslash, tarixiy shaxs haqida ingliz tilida ma’lumot tayyorlash yoki “Historical Heritage of Uzbekistan” mavzusida virtual loyiha ishlab chiqish.

To‘rtinchi guruh – nazorat-baholash va refleksiv topshiriqlar. Talabalar loyiha natijalarini belgilangan mezonlar asosida baholaydi, o‘zining til ko‘nikmalari va mustaqil ta’lim faoliyatidagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi, portfolio shakllantiradi hamda keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilaydi.

Mustaqil ta’lim natijalarini baholashda interpretatsion kontekstual, produktiv integrativ, avtoregulyativ va raqamli intellektual mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Interpretatsion kontekstual mezon tarixiy matn va manbalar mazmunini tushunish hamda talqin qilishni; produktiv integrativ mezon til ko‘nikmalarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda loyiha mahsulotini yaratishni; avtoregulyativ mezon mustaqil faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va tuzatishni; raqamli intellektual mezon esa elektron axborot resurslaridan samarali foydalanish, ma’lumotlarni tahlil qilish va raqamli mahsulot yaratishni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, loyihalashtirish texnologiyasi asosida tarix yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan mustaqil ta’lim olish faoliyatlarini takomillashtirish ta’lim jarayonining kasbiy yo‘nalganligi, mazmuniy integratsiyasi va amaliy natijadorligini ta’minlaydi. Bunda tarixiy mazmundagi o‘quv materiallari, xorijiy ilmiy manbalar, elektron resurslar va loyiha topshiriqlaridan foydalanish ingliz tilini o‘rganishning kasbiy ehtiyojlar bilan uzviy bog‘lanishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – 160 b.

2. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. // The Clearing House. – 2010. – Vol. 83(2). – P. 39–43.

3. Benson P. Teaching and Researching: Autonomy in Language Learning. – 2nd ed. – London: Routledge, 2011.

4. Blumenfeld P.C., Soloway E., Marx R.W., Krajcik J.S., Guzdial M., Palincsar A. Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning. // Educational Psychologist. – 1991. – Vol. 26(3–4). – P. 369–398.

5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

6. Fried-Booth D.L. Project Work. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2002.

7. Holec H. Autonomy and Foreign Language Learning. – Oxford: Pergamon Press, 1981.

8. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 256 b.

maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz

9. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 336 b.

maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz

10. Kilpatrick W.H. The Project Method. // Teachers College Record. – 1918. – Vol. 19. – P. 319–335.

11. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael, CA: The Autodesk Foundation, 2000.

12. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 264 b.